

Ma'lumotlardan foydalanish shartlari

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/site/policy>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati saytida joylashtirilgan ma'lumotlardan nusxa olish (ommaviy axborot vositalarida u yoki bu ma'lumotlardan yoki xabarlardan sitata keltirish) ushbu ma'lumotning manbai ko'rsatilgan holda ruxsat etiladi.

Bevosita saytda joylashtirilgan ma'lumotlar, agar axborotlar, axborotlashtirish va axborotni saqlash bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari bilan boshqa shartlar o'rnatilmagan bo'lsa, Jamiyatning mulki hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar ochiq holda berilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar turiga kirib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq himoya qilinadi. Shu bilan birga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tijorat maqsadida foydalaniladigan ob'ekt sifatida qarash mumkin emas.

Saytdan tashqaridagi axborot resurslarining giperhavolalariga o'tilganda, internet-foydalanuvchi portaldan chiqib ketadi. Sayt, tashqi axborot resurslarida joylashtirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va dolzarbligiga, ularning tarkibidagi ma'lumotlarni yangilash davriyligiga javob bermaydi.

Saytda joylashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish yoki ushbu xabarnomaning shartlari bilan bog'liq savollaringizni "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining Matbuot xizmatiga yuborishingiz mumkin.

Jamiyat rasmiy veb-saytida maxfiy, xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi, shuningdek shaxsiy, konfidensial yoki cheklangan foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni joylashtirish qat'iy taqiqlangan.

Bunday ma'lumotlarga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- davlat siri yoki xizmat siri xisoblanadigan hujjatlar va axborotlar;
- tijorat, moliyaviy yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq ichki ma'lumotlar;
- shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari (qonunchilik yoki shaxsan e'lon qilishga ruxsat berilgan holatlar bundan mustasno);
- boshqa tashkilotlar yoki shaxslarga tegishli maxfiy ma'lumotlar;
- amaldagi qonun hujjatlari bilan ta'qiqlangan ma'lumotlar.

Agar veb-saytdagi qaysidir ma'lumotlar qonunchilik hujjatlari bilan mahfiylashtirilgan yoki foydalanuvi ta'qiqilangan (chegaralangan) axborotning qatoriga kirishi bo'yicha shubhangiz bo'lsa, Jamiyat [Matbuot xizmatiga](#) xabar berishingizni so'raymiz.